

**MARKAZIY OSIYODA TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI FAN
TARAQQIYOTI .TEMURIYLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI .**

Abdusattorov Ulug‘bek G‘ulom o‘g‘li

Email: ulugbekabdusattorov79@gmail.com

Telefon raqami: +998771360147

Gulboyev Shohmansur Muhammadizoda

Email: gulboyevshohmansur@gmail.com

Telefon raqami: +998 950256523

Ergashev Sherali Musurmonovich

Email: ergashevsheeali@gmail.com

Telefon raqami: +998 991030133

DTPI Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti Tarix ta'lim yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'z davrida buyuk saltanat barpo etgan, o'zbek davlatchiligi va jahon tarixida munosib o'rin egallagan, buyuk sarkarda, ilm-fan homiysi Amir Temur shaxsining O'zbekiston va Jahon tarixshunosligida tutgan o'rni va ro'li haqida so'z boradi. Uning davlat hukumdori va ilm-fan homiysi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgani, shuningdek barcha davrlarda Temur shaxsining tarix fanida qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Jahon tarixida Sohibqiron va uning tarixini o'rgangan ilmiy tatqiqotlar haqida ayrim ma'lumotlar keltirilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Ulug'bek, temuriylar, rasadxona, ilmi hay'at, ilmi aro'z, qofiya, sanad, qaznoq, Bog'imaydon, Chinnixona, Naqshi Jahon.

Temur va temuriylar davri O'rta Osiyo madaniyatida alohida davrni tashkil qiladi. Madaniyat tarixida klassik davr hisoblangan bu davr xususan, o'zbek madaniyatining bugungi huquqiy joylashuvida asos bo'lib xizmat qiladi. Avvalo, bu davr madaniyati Temur asos solgan kuchli davlatchilik tamoillari asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liqdir. Amir Temur Davrida O'rta Osiyoning mustaqil bir davlat qilib birlashtirilishi mamlakatning iqtisodiy-madaniy taraqqiyotiga ijodiy ta'sir ko'rsatadi. Ilm-fan, adabiyot va san'at, xunarmandchilik va me'morchilik ravnoq topdi. Mamlakatlardan ko'plab fan va san'at ahillarini, xunarmand me'morchilik va musavvirilarini to'pladi Temur markazlashgan davlat tuzish jarayonida ishlab chiqarishga, xususan qishloq xo'jaligi alohida e'tibor berdi. O'rta Osiyoda qishloq xo'jaligi sun'iy sug'orishga bag'liqligini yaxshi tushungan Temur Angor kanalini qazdirdi va Mug'rob vodiysida sug'orish ishlarini yo'lga qo'ydi. Samarqand, Shahrisabz shaharlari oqar suv bilan ta'minlandi. Lalmikor yerlarida ariqlar qazildi. Dehqonchilikda donli ekinlar, paxta, zig'ir, ekilgan. Bo'yoq uchun

ro'yan o'simligi va shuningdek pillachilikda tutlar ko'p ekilgan, uzum va limonlar yetishtirilgan. Ulug'bek davrida Boog'i maydonda turli o'simliklar ekilib, Bog'cha nomli bog' barpo etildi¹. Temur Samarqand atrofida Bag'dod, Sultoniya, Sheroz nomli qishloqlar qurdilar. Temur va Ulug'bek davrida qo'ychilik va yilqichilikka alohida e'tibor berilgan. Tog'-kon ishlari yo'lga qo'yilib, turli ma'danlar qazib olinishi bilan xunarmandchilik rivojlandi. Obodonchilik, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi iqtisodiy hayotda muhim soha hunarmandchilik, savdo va tavar pul munosabatlarining taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xunarmandchilik tarmoqlari ko'payishi tufayli shaharlarda xunarmandchilik mahallalarning soni ortib, yangi bozor rastalari, tim va toqlar qurilgan. To'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik sohalri asosiy o'rin tutgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohuhiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi shaharlarida xunarmandchilik mahallalari qurilib, savdo markaziga aylandi. Ip, jun, kanob, tolasidan gazlamalar to'qilgan Ipakdan shoyi gazlamalar atlas, kimxob, bonoras, duxoba, horo, debo kabi gazlamalar to'qildi². XV-asrda metal buyumlari uy ro'zg'or buyumlari, asbob-uskinalar, qurolq-yarog'lar ko'plab ishlab chiqarilgan. Samarqand qurolsizlik markaziga aylanib, sovutsozlik mahallasi qurilgan. Shaharlarda mis va jezdan buyumlar va mis chaqalar zarb qilingan. Temur famoni biln usta Izzodin Isfaxoniy yasagan jez qozon va shamdon hozirgacha saqlanib qolgan. Misrgar va Chilangarlar metalni toblash, sirtiga naqsh solish, oltin va kumush suvi yuritish kabi murkkab ishlarni bajarganlar. Masalan, Bibixonim masjidi elliklari yetti xil ma'dan qotishmalar tayyorlangan. Zargar oltin va kumush, jez qotishmalaridan nafis zeb-ziynat buyumlari yasaganlar. Oltin kumush gardishli, qimmatbaho toshlar qadalgan idishlar sirtiga naqsh va yozuvlar ishlangan. Kulolchilik sertarmoq soha bo'lgan. XIV-XV asrlarda sirli sopol badiiy rang-baranglida turli sohalarda ishlatilgan va turli buyumlar yasalgan. Toshtaroshlikda naqsh, xattotlik keng qo'llanila boshladi. Binokorlikda g'isht teruvchilar, «banno» peshtoq, ravnaq hamda toqlarga parchin va chiroq qoplovchi padozchilar «ustoz» deb atalgan. Samarqandda shishakorlik rivojlanib turli idish va buyumlar yasalgan. Qurilishda rangli oynalardan foydalangan. Yog'och o'ymakorligida naqshli binolar qurilgan va buyum jihozlar yasalgan. Samarqand qog'ozi hatto chet o'lkalarda mashhur bo'lgan. Amir Temurni anglash – o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug'lash – tarix qariga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir³. Ayniqsa, markazlashgan Amir Temur saltanati, uning o'zbek davlatchiligi va madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni masalalariga oydinlik

¹ "Temur tuzuklari" -T: O'zbekiston, 2011, 7-bet

² Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994

³ I.A.Karimov. Amir Temur – faxrimiz, g'ururimiz. T: O'zbekiston, 1998, 414 b.

kiritilib, tarixchi, sharqshunos olimlarimiz ko‘plab birinchi manba ahamiyatidagi asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib nashr ettirdilar. O‘tgan qisqa davr mobaynida bobokalonimiz buyuk Sohibqiron Amir Temur hazratlaring tabarruk nomi, hayoti va misilsiz jasoratlarga to‘la faoliyati xalqimiz ma’naviy dunyosining ajralmas qismiga aylanib ulgurgani yaqqol na‘munasi ekanligidan dalolat beradi. Amir Temur bugungi davrda nafaqat tariximizni gavdalantirdi, balki davlat boshqaruvida, uni shakllantirishda asosiy tajriba sifatida asqotdi. Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligi va ma’naviyati o‘zining salohiyati, mazmuni, tarbiyaviy kuchi va ta’siri bilan xalqimiz tarixida alohida o‘rin egalladi. YUrtboshimiz I.A.Karimov ham takidlaganlaridek, “... bizning tariximizda Amir Temurdek ulug‘ siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandu-o‘g‘itlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan bugungi muammolarni echishda bizga qo‘l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o‘rganmasdan, ta’riflamasdan, targ‘ibot qilmasdan haqqimiz yo‘q”. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng, tariximizni chuquroq o‘rganishga buyuk ajdodlarimiz tarixini, ularning amalga oshirgan ishlarini tadqiqot qilish borasida yurtboshimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratib berildi. J.T.Toshqulov va boshqa bir qancha olimlarimizning xizmatlarini alohida sanab o‘tishimiz darkor. Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganishga butun dunyo olimlar katta qiziqish bilan qaramoqda. Amir Temur shaxsi va davlati tarixi ko‘p va xo‘p o‘rganilgan mavzulardan biridir⁴. Lekin Temur shaxsi va faoliyatiga hamisha bir xil baho berilmagan. Temur tarixi tarixshunosligi u hokimiyat tepasida turgan vaqtdanoq boshlangan. Ana shu katta hajmdagi tarixshunoslikni uch davrga bo‘lib o‘rganmoq maqsadga muvofiqdir:

- Temur davridan to XX asrning 30-yillarigacha;
- XX asrning 30-yillari oxiridan – 80 yillar 2 yarmigacha;
- Mustaqillik davri.

Temur davlati tarixi butun dunyoda keng ko‘lamli o‘rganildi. Ikkinchi davrda Temur davri tarixini o‘rganish tarixiy voqyealarning barchasi, jumladan, Temur tarixi kommunistik mafkura nuqtai nazaridan, sinfiylik tamoyillari asosida o‘rganila boshladi. Natijada Amir Temur qonxo‘r, Temur kallakesar degan qarashlar hukmron bo‘lib qoldi. Temur shaxsi va faoliyati, davlati tarixini o‘rganishda mustaqillik yangi sahifa ochdi. Amir Temurning 660-yillik yubileyi O‘zbekistonda va YuNESKO tomonidan Fransiyaning poytaxti Parijda nishonlandi, ko‘plab ilmiy asarlar yaratildi. Temur davriga oid manbalar nashr qilindi va qayta nashr qilindi. Nashr qilingan asarlarda Temur shaxsi va faoliyati, davlatining haqqoniy tarixi yaratildi, uning o‘zbek xalqi tarixida va shuningdek, jahon sivilizasiyasida tutgan o‘rni hamda roli ko‘rsatib berildi. Amir Temurning diplomatik munosabatlari tadqiq qilindi, harbiy

⁴ Ўлжаева Ш.М. Амир Темур ва темурийлар даврида миллий давлатчиликни ривожланиши. Т.: 2005 й.

yuri Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, Sohibqiron Amir Temur mashhur davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida O‘zbekiston davlatchiligining yuksalishida muhim o‘rin tutadi. Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qatorda “Sohibi jahon” hamda “Sohibi adl” - “Adolat sohibi” nomlari bilan ulug‘lanishi tarixiy manbalar va tarixshunoslarning tadqiqot ishlarida namoyon bo‘lishu bejizga emas. Bugun tarixiy bilimlarning bosqichlarini o‘rganar ekanmiz, Mo‘gullarning 150 yildan ortiq hukmronligidan so‘ng Amir Temur buyuk sarkarda, davlat arbobi, adolatli hukmdor sifatida o‘sha davrida yuksak cho‘qqilariga erishgan madaniy sohalarga e’tibor bergan, mamlakatlarda shaharsozlik, me’morchilik, tasviriy san’at, naqqoshlik, metallga badiiy ishlov berish, hattotlik, ilmu fan, adabiyot, hunarmandchilik, xullas, barcha sohalarning rivojlanishiga asosiy sababchilaridan biri bo‘lgan shaxs ekanligining guvohi bo‘lamiz. O‘zbekiston va jahon tarixshunosligida hozirgi kunga qadar o‘zining dolzarb mavzuga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Temur tuzgan buyuk davlatda Ikkinchi uyg‘onish davrining vujudga kelganligi va bu renesans Turon, Xuroson va Hindistonda uzoq asrlar mobaynida shu‘la sohib turganligi yuqoridagi gaplarimizning isboti bo‘la oladi. Amir Temur buyuk sarkarda, kuragi erga tegmagan, engilmas fotihdir. Amir Temur – insoniyat tarixida eng nodir hodisa – renesansni yuzaga chiqarib, amalga oshirgan ulug‘ zotdir! shlari tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Temur tuzuklari” -T: O‘zbekiston, 2011, 7-bet
2. Ахмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994
3. I.A.Karimov. Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz. T: O‘zbekiston, 1998, 414 b.
4. Ўлжаева Ш.М. Амир Темур ва темурийлар даврида миллий давлатчиликни ривожланиши. Т.: 2005 й.